ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME - 8

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME – 8

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

USMON NOSIR ASARLARIDA FOJIAVIYLIK VA ULUG‘VORLIK KATEGORIYALARI

Nuraliyeva Nasiba Axmadqulovna
Andijon davlat tibbiyot instituti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Usmon Nosir ijodida fojiaviylik va ulug‘vorlik kategoriyalarining badiiy-estetik talqini taxlil qilinadi. Shoir she’riy merosida inson ruhiyati, uning iztiroblari, orzu-intilishlari hamda yuksak ma’naviy qadryatlar ifodasi ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada fojiaviylikni insoniy dard va ichki ziddiyatlar orqali namoyon bo‘lishi, ulug‘vorlik esa inson ruhining buyukligi va bardoshliligi bilan uyg‘unlashuvi ochib beriladi. Shuningdek, mazkur estetik ikki kategoriya o‘zaro dialektik birlikda tahlil qilinib, Usmon Nosir poetikasining o‘ziga hos xususiyatlari aniqlanadi, hamda Shoir asarlaridagi o‘ziga xos jozibadorligi va soddaligi bilan paradigmasi keng taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Fojiaviylik, ulug‘vorlik, estetika, badiiy tafakkur, lirik qaxramon, ruhiy iztirob, yuksaklik, poetika, ziddiyat, ideal, paradigma.

Annotation. This article analyzes the artistic and aesthetic interpretation of the categories of tragedy and grandeur in the work of Osman Nasir. The expression of the human psyche, its suffering, dreams and aspirations, and high spiritual values in the poet's poetic heritage is scientifically illuminated. The article reveals that tragedy is manifested through human pain and internal conflicts, and grandeur is the combination of greatness and endurance of the human spirit. Also, these two aesthetic categories are analyzed in dialectical unity, the specific features of Osman Nasir's poetics are determined, and the paradigm of the poet's works with its unique charm and simplicity is widely analyzed.

Keywords: Tragedy, grandeur, aesthetics, artistic thought, lyrical hero, spiritual suffering, grandeur, poetics, contradiction, ideal, paradigm.

Аннотация. В данной статье анализируется художественно-эстетическая интерпретация категорий трагедии и величия в творчестве Османа Насира. Научно освещается выражение человеческой психики, её страданий, мечтаний и стремлений, а также высоких духовных ценностей в поэтическом наследии поэта. В статье показано, что трагедия проявляется через человеческую боль и внутренние конфликты, авеличие это сочетание величия и стойкости человеческого духа. Также эти две эстетические категории анализируются в диалектическом единстве, определяются специфические особенности поэтики Османа Насира, и подробно анализируется парадигма произведений поэта с её неповторимым очарованием и простотой.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: Трагедия, величие, эстетика, художественная мысль, лирический герой, духовные страдания, величие, поэтика, противоречие, идеал, парадигма.

KIRISH.

O‘zbek she’riyatining yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan Usmon Nosir ijodi milliy adabiyotimiz taraqqiyotida muhim bosqichini tashkil etadi. Uning asarlarida inson qalbi, hayot murakkabligi, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ziddiyatlar chuqur falsafiy-estetik asosida yoritilgan. Shoir ijodining muhim jihatlaridan biri-unda fojiaviylik va ulug‘vorlik kategoriyalarining o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘lishidir. Bu esa uning asarlarini nafaqat badiiy, balki estetik, falsafiy jihatdan ham qimmatli qiladi. Shuning uchun, O‘zbek adabiyoti tarihida Usmon Nosir nomi alohida o‘rin tutadi. U qisqa, ammo mazmunan serqirra ijodi bilan milliy she’riyatini yangi bosqichga olib chiqqan ijodkorlaridan biridir.

Shoir asarlarida inson ruhiyati, erk, ozodlik, muhabbat ziddiyatlari chuqur badiiy ifodasini topgan. Xususan, uning ijodida fojiaviylik (tragediya) va ulig‘vorlik (sublimlik) kategoriyalari o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘lib, bu jihat shoir poetikasining asosiy estetik xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada Usmon Nosir she’riyati misolida ushbu ikki kategoriya ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Odomzod shunday noyob mavjudodki, u o‘z qayg‘usidan hayotbaxsh ruh topa biladi, kulgusidan falsafa yasay oladi, ko‘z yosh bilan kulib, kulib turib, yosh to‘kishga qodir. Chunki uning hayoti ikki qutubdan iborat, biri- fojia, ikkinchisi quvonch. Inson ana shu ikki qutubning jonli markazi sifatida azal-u abad ham fojiaga, ham kulgiga “tegib” turishga majbur. Ana shu holat, shubhasiz, uning ma’naviy izlanishlariga ta’sir ko‘rsatadi, uni ijodkorlikka undaydi va o‘zi yaratgan san’at asarlarida yetuk estetik xususiyatlar sifatida in’ikos etadi.

Fojiaviylik estetikadagi qamrovli va asosiy tushinchalardan hisoblanadi. Uning zaminida fojiaviy ziddiyat yotadi. Fojiaviy ziddiyat shaxs orzu-istaklari, maqsadlari bilan jamiyat talablari orasidagi qarama qarshilikdan vujudga keladi, boshqacha qilib aytganda, fojiaviy ziddiyat erkinlik va zaruriyat orasidagi kurash degani.

Usmon Nosir ijodida fojiaviylik quyidagi omillar orqali namoyon bo‘ladi:

Shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyat;

Erkinlikka intilish va to‘siqlar;

Hayotning adolatsizligi;

Ichki ruhiy iztiroblar.

Shoirning o‘zi ham murakkab tarixiy davrda yashab, og‘ir sinovlarni boshidan kechirganligi sababli uning asarlarida fojiaviy ruh tabiiy aks etadi. Usmon Nosir

ISSN 3030-3907

1937 yil may-iyun oylarida Moskvada bo‘lib, o‘zbek adabiyoti va madanyati dekadasi va Pushkin vafotining 100-yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan plenumda ishtirok etadi. 1937yil 14 iyul kuni NKVD tamonidan hibsga olinib, 1938 yil oktyabr oyida Sibirga surgan qilinadi. Vladivostok,Zlatoust, Magadan, Mariinsk, Siblag qamoqhonalarida jazo o‘taydi. Bu esa o‘zbek halqini boshiga va o‘zbek sheriyatiga ulkan fojiaviylik tushganday bo‘ldi, u yerda ham shoir to‘xtab qolmadi ijod qilishda davom etdi. 1940 yil 20 avgust kuni Usmon Nosir I. V. Stalin nomiga Magadandan arz hatini yozib, qiyin qamoq sharoitida “bitta she’riy roman,uchta pyesa, bir qator she’rlar yozganini aytadi va “halqlar dohisi”dan ozodlikka chiqarishini so‘raydi.Manabu esa haqiqiy ulug‘vorlik deya olish mumkin. Usmon Nosir adabiyoti maydonida faqat 24 yoshgacha ijod qilib, ko‘p asarlar yaratdi. O‘zini buyuk shoir, iste’dodli publisit, mohir tarjimon sifatida elga tanitdi. Mumtoz adabiyotimizning atoqli vakiliga aylandi. She’riyatda maktab yaratdi.Bir so‘z bilan aytganda halq dohisi va ulug‘vorlik namunasi deb atash mumkin. Uyg‘unning satrlari bilan aytganda:

Uni o‘ldirganlar bilmadi,
Mumkin emas uni o‘ldirmoq,
U-chi, ko‘rki bo‘lib she’riyatining
O‘tiribdi ko‘r to‘kib to‘rda…

Shoirning bu kabi she’rlarida Usmon Nosirning o‘limi fojiaga aylanganligi bu bilan halq ma’naviyatiga-ma’rifatiga,ilmu-urfoniga salbiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, bu kabi hayollar shoir ko‘nglini g‘am-sitamlarga to‘ldiradi, tushkinlik ko‘chasiga etaklaydi. Va u nochorlik,fojia qurboni sifatida, noilojlikdan o‘zini bu fikrlarini bayon qiladi.

Usmon Nosir “Qora satrlar” she’ri paydo bo‘ladiki, unda shoir endi “Norbo‘ta”da ko‘targan g‘oyaning aksini berishga urinadi:

E! Bu mayli. Yana esimda
Ko‘chalarda oqqan daryo qon.
Men bilmayman, ammo tushimda-
Shunda akamni ko‘rdim qurbon..
Ketdim degan, qaytib kelmagan,
Zulmga sabri chiday olmagan,
Yigit edi, so‘zlar edi rost,
Faqat shuni bilaman, halos!
O, u yurak, o, u tilla bosh
O‘lim uchun chiqqanmi eding!
Yo‘q, bilaman, faqat tinch yashash-
Erking uchun olish eding!

ISSN 3030-3907

Agar “Norbo‘ta”da qahramon soxta g‘oya uchun o‘z akasini dushman bilib, uni fojiaviy tarzda qonini oqizgan bo‘lsa, yana bir asari “Qora satrlar”-ning lirik qahramoni “tinch yashash” va “erk uchun olishib” halok bo‘lgan akasi uchun kuyub iztirob chekadi, “ko‘chalarda oqqan daryo qon”ni iztirob bilan eslaydi. Bu orqali shoir fojiaviylik va ulug‘vorlikni uyg‘un holda yuksak mahorat bilan ochib berolgan. Usmon Nosir o‘z davrining vatanparvar, yurt tinchligi, halqfarovonligi yo‘lida jonini fido qilgan, ziyoli-ma’rifatparvar jadid mutafakkuri deb atasak arziydi.

Fojiaviylik kategoriyasining badiiy talqini, fojiaviylik-inson hayotidagi og‘riqli kichinmalar,ruhiy iztiroblar va keskin ziddiyatlarning badiiy ifodasidir. Estetika nuqtayi nazaridan qaralganda, fojiaviylik insonning ichki kurashi va hayotiy muommolari bilan chambarchas bog‘liqdir. Usmon Nosir ijodida fojiaviylik quyidagi shakillarda ko‘zga tashlanadi:

Ichki ruhiy iztirob-lirik qahramonning qalbidagi og‘riq, iztirob va yolg‘izlik hissi;

Hayotiy ziddiyatlar-orzu va haqiqat, erk va majburyat ortasidagi qarama-qarshiliklar;

Ijtimoiy muhit ta’siri- shaxs erkinligining cheklanishi, adolatsizlik hissi.

Masalan, Yurak she’rida inson qalbining chuqur iztiroblari kuchli dramatizim bilan ifodalangan. Bu yerda yurak obrazi orqali insonning ichki dunyosi ramziy tarzda ochib berilgan. Shoir fojiaviylikni oddiy qayg‘u sifatida emas, balki inson ruhining sinovlari sifatida talqin qiladi.

Ulug‘vorlik kategoriyasining ifodasi Ulug‘vorlik-insonni ruhiy jihatdan yuksaltiruvchi, buyuklik va qudratni ifodalovchi estetik kategoriya bo‘lib, u insonning ichki kuchi va ma’naviy yuksakligini aks ettiradi. Usmon Nosir ijodida ulug‘vorlik quyidagi jihatlar orqali namoyon bo‘ladi:

Erkinlik g‘oyasi- insonning ozodlikka intilishi;

Matonat va bardoshlilik-qiyinchiliklarga qarshi kurash;

Yuksak ideallar-Vatanga muhabbat, haqiqatga sadoqat.

Shoir asarlarida lirik qahramon o‘g‘ir sinovlarga duch kelgan bo‘lsa-da, u o‘zining insoniy qadr-qimmatini yo‘qotmaydi. Bu esa ulug‘vorlikning asosiy ko‘rinishidir.

Fojiaviylik va ulug‘vorlikning dealektik uyg‘unligi bu Usmon Nosir ijodining o‘ziga xosligi shundaki, unda fojiaviylik va ulug‘vorlik bir-biriga qarama-qarshi emas, balki o‘zaro bog‘liq holda mavjuddir. Bu uyg‘unlik quyidagicha ifodalanadi:

Iztirob orqali ruhiy yuksalish; sinov orqali kuchli shaxs shakillantirish; zulmat Ichida nur topish. Shoir asarlarida fojiaviy holatlar insonni sindirish emas,

ISSN 3030-3907

balki uni yanada kuchliroq qilish vositasi sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan, uning ijodi optimistic ruh bilan sug‘orilgan fojiaviylik namunasidir.

Hulosa qilib aytganda, Usmon Nosir ijodi o‘zbek adabiyotida fojiaviylik va ulug‘vorlik kategoriyalarining yuksak badiiy ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, shoir asrlarida fojiaviylik inson hayotining ajralmas qismi sifatida tasvirlanadi. Bu fojiaviylik orqali insonning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari va hayotiy kurashlari ochib beriladi. Ikkinchidan, ulug‘vorlik kategoriyasi orqali insonning ma’naviy buyukligi, bardoshliligi va yuksak ideallarga sadoqati ulug‘lanadi. Shoir qahramoni qanchalik og‘ir sinovlarga duch kelmasin, u o‘z ruhiy kuchini saqlab qoladi.

Ushbu ikki katigoriya o‘zaro uyg‘un holda shoir poetikasining asosiy estetik mezonini tashkil etadi. Fojiaviylik ulug‘vorlikni yanada yorqinroq ko‘rsatadi, ulug‘vorlik esa fojiaviylikka ma’no va chuqurlik bag‘ishlaydi. Natijada, Usmon Nosir ijodi nafaqat badiiy,balki falsafiy-estetik jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘zbek she’riyatida inson ruhiyati va uning buyukligini yoritishda muhim o‘rin egalladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z chiqishlarida fojiaviylik va ulug‘vorlik uyg‘unligini halqning og‘ir o‘tmishi, bosib o‘tgan mashaqqatli yo‘li bugungi erishilgan yuksak natijalarni ifodalashda qo‘llaydi. Bu konsepsiya bo‘yicha president ta’rifi quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

Tarixiy fojiaviylik: Halq boshidan o‘tkazilgan mustamlakachilik davri, qatag‘onlar, milliy o‘zlikdan ayri tushish va mustaqillikka erishish yo‘lidagi qurbonlar fojiaviy o‘tmish sifatida eslanadi.

Fojiaviylikni anlash: O‘zbek xalqi boshidan kechirgan og‘ir kunlar, mustabid tuzum davridagi qatog‘onlar,millatning eng sara vakillari- jadidlar va ziyolilarning yo‘q qilinishi.

Ulug‘vorlikni anglash: Aynan o‘sha fojialarga qaramay, xalqning irodasi sinmagani, ozodlikka intilishi va bugungi kunda erishilgan mustaqillik, tunchlik hamda rivojlanishning yuksak qadri.

Uyg‘unlik: Prezident “o‘tmishni yod etish-kelajakni barpo etish” g‘oyasini ilgari suradi. Fojiali tarixni eslash va ularni o‘rganish (masalan, Qatag‘on qurbonlari yodgorligi majmuasi, “Shahidlar xotirasi” xiyoboni) orqali yoshlarda bugungi erkinlikning qadriga yetish ulug‘vor maqsad qilib qo‘yiladi. Prezident shuni alohida ta’kidlaydiki, fojiaviy o‘tmishni unutmaslik-inson qadrini ulug‘lashning, ulug‘vor kelajakni qurish esa-o‘sha o‘tganlar xotirasiga hurmat ko‘rsatishning eng oliy shakilidir. Bu uyg‘unlik milliy g‘urur va tarixiy xotirani shakillantirishning asosi hisoblanadi. Shu asnoda Prezidentimiz tashabbusi bilan Otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida PQ 125 sonli qarori 11 fevral kuni 110 yilligiga

ISSN 3030-3907

bag‘ishlab, Namangan shaxrida Usmon Nosir haykalini o‘rnatish. Toshkent va Namangan ko‘chalariga Usmon Nosir nomini berish hamda poytaxtimizdagi Adiblar hiyobonida haykalini va Rossiyaning Kemerova viloyatiga shoir dafn etilgan maskanda yodgorlik o‘rnatishni ko‘zda tutgan. Darhaqiqat Usmon Nosir bir she’rida “Bargdek uzulib ketsam, unutmas meni bog‘im”, deb yozgan edi. Albatta, u “bog‘” deganda, jonajon vatanni, bag‘rikeng halqimizni nazarda tutganini anglash qiyin emas, va doimo kelajagimiz yoshlari o‘z tarihini va buyuk ma’rifatparvar jadiddaxolarini unutmay davomchilari, izdoshlari sifatida qoladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar. Toshkent. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1988y.
2. Usmon Nosir. She’rlar to‘plami. Toshkent O‘zbekiston nashriyoti,2001y.
3. Ozod Sharafiddinov. Adabiyot-hayot darsi. Toshkent Ma’naviyat, 2005y.
4. Aristotle. Poetika. Toshkent Yangi asr avlodi, 2011 y.
5. Georg Wilhelm Friedrich Hegel. Estetika bo‘yicha ma’ruzalar. Moskva, Iskusstvo,1971y.
6. Estetika asoslari. Toshkent Unversitet nashriyoti, 2010 y.
7. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. Toshkent, 2018y.
8. Estetika.Nafosat falsafasi darslik, Toshkent “O‘zbekiston” Abdulla Sher. 2014y.
9. Usmon Nosir haqida Turkiston ulug‘lari, Nodira Rashidova Gofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti Toshkent 2001y.
10. Ziyonet.uz ta’lim portal.
11. Kitobhon.com electron kutubhonasi.
12. Tafakkur.net, https// tafakkur.net.
13. UzReport.news,https//uzreport.news.

ISSN 3030-3907